

RUS TILINI O'QITISHDA KOMMUNIKATIV YONDASHUV VA INNOVATSION PEDAGOGIK TEXNOLOGIYALAR

Nigora Saliyeva

*Kata o'qituvchi, Farg'ona jamoat salomatligi
tibbiyot instituti, O'zbekiston, Farg'ona*

Annotatsiya: *Ushbu maqolada rus tilini o'qitish jarayonida kommunikativ yondashuvning mazmun-mohiyati hamda innovatsion pedagogik texnologiyalarning o'rni va ahamiyati tahlil etilgan. Shuningdek, zamonaviy innovatsion pedagogik texnologiyalarni qo'llash orqali dars samaradorligini oshirish, ta'lim jarayonini interfaol va samarali tashkil etish yo'llari asoslab berilgan. Maqola natijalari rus tilini o'qitishda kommunikativ yondashuv va innovatsion texnologiyalar uyg'unligi o'quvchilarning til o'rganishga bo'lgan qiziqishini oshirishi hamda amaliy nutqiy faoliyatini rivojlantirishda muhim omil ekanligini ko'rsatadi.*

Kalit so'zlar: *rus tili, kommunikativ yondashuv, innovatsion pedagogik texnologiyalar, nutqiy kompetensiya, interfaol metodlar, ta'lim samaradorligi, chet tilini o'qitish, muloqot ko'nikmalari, zamonaviy pedagogika, didaktik yondashuv.*

Аннотация: *В данной статье анализируются сущность и содержание коммуникативного подхода в процессе обучения русскому языку, а также роль и значение инновационных педагогических технологий. Кроме того, обосновываются пути повышения эффективности урока за счёт применения современных инновационных педагогических технологий, а также организации учебного процесса в интерактивной и эффективной форме. Результаты исследования показывают, что сочетание коммуникативного подхода и инновационных технологий в обучении русскому языку является важным фактором повышения интереса учащихся к изучению языка и развития их практической речевой деятельности.*

Ключевые слова: *русский язык, коммуникативный подход, инновационные педагогические технологии, речевая компетенция, интерактивные методы, эффективность обучения, преподавание иностранного языка, коммуникативные навыки, современная педагогика, дидактический подход.*

KIRISH

XXI asrda ta'lim tizimining rivojlanishi jamiyatning ijtimoiy-iqtisodiy, madaniy va intellektual taraqqiyoti bilan uzviy bog'liq holda kechmoqda. Ilm-fan taraqqiyoti, axborot texnologiyalarining jadal rivojlanishi va global raqobat muhiti ta'lim jarayoniga yangicha yondashuvlarni talab qilmoqda. Zamonaviy pedagogika fani ta'lim oluvchining shaxsiy salohiyatini ro'yobga chiqarish, mustaqil fikrlash, kreativ tafakkur, hamkorlikda o'qish, kommunikativ qobiliyatlar hamda kompetensiyalarni shakllantirishni asosiy vazifa sifatida belgilaydi. Mazkur maqsadlarga erishishda pedagogik innovatsiyalar muhim metodologik va amaliy ahamiyat kasb etadi.

Ma'limki, an'anaviy ta'lim tizimida rus tilini o'qitish asosan grammatik-qoidaviy yondashuvga asoslanib, o'quvchilarda til birliklarini nazariy jihatdan o'zlashtirishga ko'proq e'tibor qaratilgan. Bunday yondashuv o'quvchilarning yozma savodxonligini oshirishga xizmat qilgan bo'lsa-da, ularning erkin muloqot qilish, fikrni mustaqil ifodalash va real kommunikativ vaziyatlarda tilni qo'llash ko'nikmalarini yetarli darajada shakllantira olmagan. Natijada o'quvchilar grammatik bilimga ega bo'lsa-da, amaliy nutqiy faoliyatda qiyinchiliklarga duch kelish holatlari kuzatiladi.

Zamonaviy chet tillarini o'qitish nazariyasining holati hamda to'plangan bilimlar kommunikativ o'qitish konsepsiyasiga yana bir bor murojaat qilish zarurligini ko'rsatmoqda. Iqtisodiyot va ijtimoiy sohaning rivojlanish istiqbollari hisobga olgan holda, bugungi kunda maktab bitiruvchilarida yangi kasbiy va shaxsiy sifatlarni shakllantirish muhimdir. Bunday sifatlar qatoriga tizimli va ijodiy fikrlash, ekologik va axborot madaniyati, til va kommunikativ kompetensiya, o'z faoliyatini ongli tahlil qilish qobiliyati hamda noaniqlik sharoitida mustaqil harakat qilish layoqati kiradi. Shuni inobatga olish kerakki, bu natijalarga faqat kommunikativ yondashuv orqali erishish mumkin. Ushbu yondashuvning asosiy maqsadi - o'quvchini chet til muhitida erkin yo'nala olishga va turli vaziyatlarda to'g'ri (adekvat) munosabat bildira olishga o'rgatishdir.

“Kommunikativ yondashuvda til o'rganish jarayoni o'quvchi faoliyatiga yo'naltiriladi, o'qituvchi esa tashkilotchi va yo'naltiruvchi sifatida ishtirok etadi. Shu bilan birga, innovatsion pedagogik texnologiyalarni ta'lim jarayoniga joriy etish rus tilini o'qitish samaradorligini yanada oshirish imkonini beradi”[1, 24].

Axborot-kommunikatsiya texnologiyalari, interfaol metodlar, multimedia vositalari va raqamli platformalardan foydalanish o'quvchilarning darsga bo'lgan qiziqishini kuchaytiradi, ularning mustaqil fikrlash va ijodiy yondashuvini rivojlantiradi. Innovatsion texnologiyalar kommunikativ yondashuv bilan uyg'unlashganda, ta'lim jarayoni yanada dinamik, samarali va natijador tus oladi.

Kommunikativ metodika o'quvchilarning og'zaki nutq ko'nikmalarini tez o'zlashtirishiga yordam beradi. Bu esa turli xil monologik nutq turlari, namunaviy dialoglar va til modellashtirish shakllarini o'zlashtirish hisobiga ta'minlanadi. Mazkur metodikaning darsdagi va butun o'qitish strategiyasidagi asosiy birligi – bu nutqiy faoliyat, ya'ni gapirish aktidir.

MAVZUNING O'RGANILGANLIK DARAJASI

Kommunikativ yondashuv va innovatsion pedagogik texnologiyalar o'zaro chambarchas bog'liq bo'lib, zamonaviy rus tili ta'limining asosiy didaktik asoslaridan birini tashkil etadi. Kommunikativ yondashuvning markazida o'quvchilarning real muloqot jarayonida tilni amaliy qo'llash kompetensiyasini rivojlantirish turadi. “Bu esa ularning motivatsiyasini kuchaytirib, mustaqil o'rganish ko'nikmalarini rivojlantiradi. Shu jihatdan, kommunikativ yondashuv va innovatsion texnologiyalar uyg'unligi rus tilini o'qitish jarayonini zamonaviy, samarali va natijador ta'lim modeliga aylantiradi”[1, 39]. O'qituvchining innovatsion faoliyati voqelikni o'zgartirishga, uning muammolari va usullarini yechishni aniqlashga qaratilgandir. “Demak, o'qituvchi yangi pedagogik

texnologiyalar, nazariyalar, konsepsiyalarning muallifi, ishlab chiqaruvchisi, tadqiqotchisi, foydalanuvchisi va targ'ibotchisi sifatida namoyon bo'ladi"[1,60].

Ta'lim samaradorligi – bu ta'lim jarayonining belgilangan maqsad va natijalarga qanchalik darajada erishganini ko'rsatuvchi mezondir. Samarali ta'limda o'quvchi nafaqat bilim oladi, balki mustaqil fikrlash, tahlil qilish va amaliyotda qo'llash ko'nikmalariga ega bo'ladi. Ta'lim samaradorligini ta'minlashda pedagogning o'rni beqiyosdir. Pedagogning asosiy vazifasi – o'quv jarayonini samarali tashkil etish, har bir o'quvchining individual xususiyatlarini inobatga olgan holda ta'lim berish, zamonaviy ta'lim texnologiyalarini to'g'ri tanlab qo'llash va o'quvchilarda mustaqil fikrlash ko'nikmalarini shakllantirishdan iboratdir. "Ta'lim texnologiyasi – aniq bir o'quv predmetini o'qitishning ilmiy asoslangan qonun-qoida, metod va usullaridan iborat bo'lib, u ta'limda ko'zlagan maqsadga erishish bosqichlarini o'zida aks ettirgan va ta'lim jarayonini maqsadga muvofiq boshqarishga erishish imkonini beruvchi jarayondir"[2, 76]. Shunday qilib, ta'lim texnologiyasi va ta'lim jarayoni bir-birini to'ldiradi: biri vosita bo'lsa, ikkinchisi maqsadga eltuvchi yo'ldir.

ASOSIY QISM

Rus tilini o'rgatish (va umuman olganda har qanday fan) o'qituvchi va o'quvchilarning birgalikdagi faoliyatidir. O'quvchilar tilni puxta egallashlari uchun o'qituvchi ma'lum tarbiyaviy (mashq) harakatlarni amalga oshirishi kerak: yangi materialni tushuntirish, topshiriq berish, savol berish va javobning to'g'riligini tekshirish va hokazo. Chunki, "kommunikativ yondashuv barcha o'quvchilarni kommunikativ kompetensiyasini egallashga, ya'ni tildan to'g'ri va to'g'ri foydalanishga qaratilgan. Asosiy e'tibor o'quvchiga qaratilgan bo'lib, o'qituvchi faqat yordamchi hisoblanadi. Kommunikativ o'quv va o'quv dasturlarini tayyorlash uchun ehtiyojni tahlil qilish va rejalashtirishga asoslanadi"[3, 67]. Bu yondashuvda tilning asosiy vazifasi – muloqot qilish va fikr almashish ekanligi ta'kidlanadi. Kommunikativ yondashuvning maqsadi nafaqat tilni o'rganish, balki o'rganilgan tilni o'quvchining shaxsiy va ijtimoiy muloqotida qo'llay olishidir.

Rus tili darslarida kommunikativ yondashuvning asosiy pedagogik vazifasi – o'quvchilarning tilni amaliy maqsadlarda samarali ishlata olish ko'nikmalarini shakllantirishdir. An'anaviy yondashuvlar ko'pincha grammatik qoidalarga va lug'atni yodlashga asoslangan bo'lsa, kommunikativ yondashuv tilni muloqot vositasi sifatida o'rgatishga yo'naltirilgan.

Dars jarayonida kommunikativ yondashuv quyidagi pedagogik metodlar orqali amalga oshiriladi: rolli o'yinlar, dialog va muhokama mashg'ulotlari, guruh ishlari, problemali vaziyatlar va interfaol mashg'ulotlar. "Masalan, o'quvchilarga turli ijtimoiy vaziyatlar beriladi va ular shu vaziyatda rus tilida muloqot qiladilar. Bu yondashuv nutqning to'g'ri tuzilishi, so'z boyligi va talaffuzni rivojlantirishga xizmat qiladi. Shu bilan birga, o'quvchilarning fikrlash faoliyati, ijodiy qobiliyati va mustaqil ish ko'nikmalari ham shakllanadi"[2, 87].

Kommunikativ yondashuvning yana bir muhim jihati – o'quvchilarning til kompetensiyasini sistematik rivojlantirishdir. Pedagogik nazariyaga ko'ra, til

kompetensiyasi faqat grammatik qoidalarni bilishdan iborat emas, balki nutq madaniyati, kontekstga mos soʻz tanlash, oʻz fikrini aniq va ravon ifodalash qobiliyatini ham oʻz ichiga oladi. Shu sababli, darslarda oʻquvchilarni faqat nazariy bilim bilan cheklamasdan, ularni amaliy mashgʻulotlar va muloqot faoliyatiga jalb qilish muhimdir.

Kommunikativ yondashuvning samaradorligi interfaol va innovatsion metodlardan foydalanish bilan yanada oshadi. Masalan, multimedia vositalari, virtual muhit, taqdimot va guruh ishlari oʻquvchilarning diqqatini jalb qiladi, tilni oʻrganishga boʻlgan motivatsiyani oshiradi va pedagogik jarayonni yanada samarali qiladi.

NATIJALAR

Tadqiqot natijalari shuni koʻrsatdiki, rus tilini oʻqitishda kommunikativ yondashuv va innovatsion pedagogik texnologiyalarni uygʻun qoʻllash taʼlim samaradorligini sezilarli darajada oshiradi. Ushbu yondashuv oʻquvchilarning nutqiy kompetensiyasini rivojlantirib, ularning erkin muloqot qilish, mustaqil fikrlash va tilni amaliy qoʻllash koʻnikmalarini shakllantiradi. Shuningdek, dars jarayonida interfaollik va oʻquvchilarning faolligi ortib, taʼlimga boʻlgan motivatsiya kuchayadi. Natijada, kommunikativ yondashuv asosida tashkil etilgan darslar anʼanaviy usullarga nisbatan yuqori samaradorlikka ega ekanligi aniqlandi.

Rus tili darslariga innovatsion texnologiyalar va raqamli resurslarni kiritish ham boshlangʻich sinf oʻquvchilarida kommunikativ kompetensiyani rivojlantirishga yordam beradi. Interaktiv til oʻrganish platformalari, multimedia materiallari, onlayn muloqot vositalari va taʼlimga oid ilovalar oʻquvchilarga tinglash, gapirish, oʻqish va yozish koʻnikmalarini dinamik va jozibador tarzda mashq qilish imkoniyatini beradi. Interfaol va shaxsiylashtirilgan taʼlim tajribasini yaratish uchun texnologiyadan foydalangan holda, oʻqituvchilar turli xil oʻrganish uslublari, qiziqishlari va qobiliyatlarini qondirishi mumkin, shu bilan birga talabalar oʻrtasida faol ishtirok etish va hamkorlikni ragʻbatlantirishlari mumkin. “Bundan tashqari, loyihaga asoslangan oʻrganish, topshiriqlarga asoslangan faoliyat va tajribaga asoslangan oʻrganish imkoniyatlaridan foydalanish talabalarning rus tili va madaniyati haqidagi tushunchalarini chuqurlashtirishi va ularning kommunikativ koʻnikmalarini oshirishi mumkin”[3, 46]. Mazkur yondashuvlar oʻquvchilarning nazariy bilimlarini amaliy faoliyat bilan uygʻunlashtirishga xizmat qiladi. Xususan, loyihaga asoslangan oʻrganishda oʻquvchilar muayyan mavzu doirasida mustaqil izlanish olib borib, oʻz natijalarini taqdim etadi, bu esa ularning tahliliy va ijodiy fikrlash qobiliyatini rivojlantiradi. Topshiriqlarga asoslangan faoliyat esa aniq kommunikativ vazifalarni bajarish orqali til birliklarini tabiiy va maqsadga yoʻnaltirilgan holda qoʻllash imkonini beradi.

Kommunikativ yondashuvga asoslangan metodikalar oʻquvchilarda madaniyatlararo muloqot madaniyatini, eshitish va tushunish koʻnikmalarini, hamda oʻz fikrini aniq va toʻgʻri bayon etish malakasini rivojlantirishga xizmat qilgani aniqlangan. Natijada, rus tili taʼlimining sifat koʻrsatkichlari oshgan, oʻquvchilarning til kompetensiyasi kengaygan hamda ularning ijtimoiy faolligi kuchaygan.

MUHOKAMA

Mazkur tadqiqot natijalari asosida rus tilini o'qitishda kommunikativ yondashuv va innovatsion pedagogik texnologiyalarning o'rni alohida tahlil etishni talab etadi. Tadqiqot davomida olingan natijalar shuni ko'rsatadiki, ushbu yondashuvlar nafaqat ta'lim samaradorligini oshiradi, balki o'quvchilarning nutqiy va kommunikativ kompetensiyalarini rivojlantirishda muhim omil sifatida namoyon bo'ladi. Shu bois, mazkur bo'limda an'anaviy va zamonaviy yondashuvlarning o'zaro farqli jihatlari, ularning afzallik va cheklovlari qiyosiy tahlil asosida yoritiladi.

"Ilmiy manbalar tahlili va amaliy tajriba shuni tasdiqlaydiki, kommunikativ yondashuv zamonaviy ta'limning asosiy talablariga to'liq javob beradi. Ammo uni samarali qo'llash uchun o'qituvchilardan yuqori darajadagi metodik tayyorgarlik, o'quv materiallarini kommunikativ yo'nalishda qayta ishlab chiqish hamda interaktiv texnologiyalarni o'rinli qo'llash talab etiladi"[4, 89]. Shunday qilib, muhokama natijalari shuni ko'rsatadiki, rus tili ta'limida kommunikativ yondashuvni tizimli tatbiq etish o'quvchilarning lingvistik, sotsiolingvistik va pragmatik kompetensiyalarini rivojlantirishga xizmat qiladi hamda ularni hayotiy muloqotga tayyorlaydi.

"Kommunikativ yondashuvni dars jarayonida qo'llash o'quvchilarning darsga bo'lgan qiziqishini oshiradi, ularni faol o'rganishga undaydi hamda ta'lim jarayonini interaktiv, ijodiy va samarali tusga keltiradi. Shuningdek, bu yondashuv o'qituvchi va o'quvchi o'rtasida hamkorlikka asoslangan ijobiy pedagogik muhit yaratishga yordam beradi"[5, 49]. Mazkur yondashuv, ayniqsa, o'quvchilarning mustaqil fikrlash qobiliyatini rivojlantirishda muhim ahamiyat kasb etadi. Chunki kommunikativ faoliyat jarayonida o'quvchi nafaqat tayyor bilimni qabul qiladi, balki uni tahlil qiladi, umumlashtiradi va amaliyotda qo'llashga harakat qiladi.

XULOSA

Mazkur maqolada rus tilini o'qitishda kommunikativ yondashuv va innovatsion pedagogik texnologiyalarning o'zaro uyg'unligi hamda ularning ta'lim jarayonidagi o'rni tahlil qilindi. Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, kommunikativ yondashuv o'quvchilarning tilni amaliy muloqot vositasi sifatida samarali qo'llash ko'nikmalarini shakllantiradi, innovatsion pedagogik texnologiyalar esa ushbu jarayonni yanada faollashtirib, dars samaradorligini oshiradi. An'anaviy yondashuvlarga nisbatan mazkur integratsiyalashgan model o'quvchilarning nutqiy kompetensiyasi, mustaqil fikrlashi va ijodiy faolligini rivojlantirishda yuqori natija berishi bilan ajralib turadi. Shuningdek, kommunikativ va innovatsion yondashuvlarning uyg'unligi ta'lim jarayonini shaxsga yo'naltirilgan, interfaol va amaliy ahamiyatga ega tizimga aylantiradi. Bu esa o'quvchilarning nafaqat til bilimlarini egallashiga, balki ularni real hayotiy vaziyatlarda qo'llay olishiga ham zamin yaratadi.

Takliflar:

☒ Rus tili darslarida kommunikativ yondashuvni tizimli ravishda joriy etish va har bir mavzuda amaliy muloqotga yo'naltirilgan topshiriqlarni ko'paytirish;

☒ Innovatsion pedagogik texnologiyalar – multimedia, onlayn platformalar va interfaol dasturlardan keng foydalanishni yo'lga qo'yish;

- ☒ O'quvchilarning nutqiy kompetensiyasini rivojlantirish uchun rolli o'yinlar, debatlar va loyihaviy faoliyatni muntazam tashkil etish;
- ☒ O'qituvchilarning innovatsion metodik savodxonligini oshirish maqsadida maxsus trening va malaka oshirish kurslarini kuchaytirish;
- ☒ Ta'lim jarayonida individual yondashuvni rivojlantirib, o'quvchilarning qiziqish va ehtiyojlarini inobatga olish.

ADABIYOTLAR:

1. Jalolov J.J. Chet til o'qitish metodikasi, Toshkent, 2012.
2. J.Hasanboyev va boshqalar. Pedagogika. Darslik. Toshkent, 2016.
3. Pedagogik texnologiyalar va pedagogik mahorat. O'quv qo'llanma. Toshkent, 2006.
4. Z.F.Sharopova. Ta'Lim texnologiyalari. Darslik. Toshkent, 2019.
5. G'ulomov A. Til o'qitish metodikasi. Toshkent, 2015.
6. Ганиев, М. М. (2020). Проблемы обучения русскому языку студентов медицинских вузов в Узбекистане. Молодой ученый, (44), 322-324.
7. Ulugbek, S., & Nigora, S. (2025). Education and Pedagogical Innovations: Modern Directions in the Development of Science. Spanish Journal of Innovation and Integrity, 48, 142-148.
8. Saliev, U. (2026, January). STUDYING THE CONTEMPORARY HISTORY OF UZBEKISTAN BASED ON MODERN INFORMATION TECHNOLOGIES. In International Conference on Science, Education & Law (Vol. 2, No. 1, pp. 43-47).
9. Салиев, У., & Салиева, Н. (2024). ЗАДАЧИ МЕДИЦИНСКОЙ ПЕДАГОГИЧЕСКОЙ ДЕОНТОЛОГИИ. Interpretation and researches, 2(13), 82-85.
10. Saliev, U., & Salieva, N. (2024). TASKS OF MEDICAL ETHICS AND MEDICAL PEDAGOGICAL DEONTOLOGY. BEST JOURNAL OF INNOVATION IN SCIENCE, RESEARCH AND DEVELOPMENT, 3(5), 456-464.
11. Sadikovna, S. N. (2022). OLIY TA'LIMDA ZAMONAVIY PEDAGOGIK TEXNOLOGIYALARIDAN FOYDALANISH MUAMMOSINI O'RGANISHNING ILMIY-METODIK ASOSLARI. INTEGRATION OF SCIENCE, EDUCATION AND PRACTICE. SCIENTIFIC-METHODICAL JOURNAL, 3(4), 167-169.